"AL-FIQH AL-ABSAT" ASARIDA AQIDAVIY MAVZULARNING YORITILISHI

ОСВЕЩЕНИЕ ТЕМ АКИДЫ В «АЛЬ-ФИКХ АЛЬ-АБСАТ»

COVERAGE OF TOPICS OF AQIDA IN "AL-FIQH AL-ABSAT"

PRIMOV Soatmurod Uralovich
Tashkent Islamic institute named after Imam Bukhari
Deputy of rector for scientific affairs in
Doctor of Philosophy in Islamic Studies (PhD),
assosiate professor
soatmurot.tii@gmail.com
100002, Republic of Uzbekistan, Tashkent city,
Almazor district, Zarqaynar 18-berk street, 47

Annotatsiya: *Islom dini dastlab Arabiston yarim orolida paydo bo'lgan bo'lsa keyinchalik xulofoi roshidinlar davrida Fors va Shom diyorlariga yetib bordi hamda o'sha yerdagi mahalliy aholining ko'pchilik qismi musulmon bo'ldi. Umar (r.a.) davrida Fors mamlakati fath etildi. Shu qatorida Iroq hududlariga islom dini kirib bordi. Vaholanki, Iroq hududi – ikki daryo oralig'i qadimdan madaniyat markazlaridan biri hisoblanagan. Bu mintaqada turli millat va din vakillari yashagan. Mahallaiy aholining ko'pchilik qismi musulmon bo'lishganidan keyin boshqa din va ta'limoti vaikllari bilan muayyan e'tiqodiy masalalar borasida turli ixtiloflar kelib chiqdi. Islom diniga mansub asosiy va dastlabki firqalar ham aynan Iroq hududida paydo bo'lgan. Xavorij, mo'tazila va shia kabi firqalar.*

Hanafiy mazhab asoschisi – Imom Abu Hanifa ham aynan mana shu zaminda yashagan va ijod qilgan. Imom Abu Hanifa ko'plab shogirdlariga fiqh va aqida imlarini o'rgatish barobarida o'sha vaqtda mavjud bo'lgan ko'plab firqa vakillari bahs-munozalar olib borgan hamda ahli sunna val jamoa aqidasni himoya qilgan. Manbalarda zikr qilinishicha Imom Abu Hanifa turli adashgan firqa vakillari bilan bahs-munozra qilish uchun yigirmadan ortiq marotaba Basra shahriga borgan. Imom Abu Hanifa aqoid ilmiga oid asarlarida ahli sunnaning sof e'tiqodiy qarashlarni bayon qilish bilan birga adashgan firqalarga raddiyalar bergan. Mana shunday asarlaridan ibri "al-Fiqh al-absat" asari bo'lib, savol-javob shaklida aqidaviy masalalar bayon qilingan. Mazkur maqolada dastlab asarning muallifi borasidagi qarashlar tahlil qilingan. Shuningdek, bir nechta ulamolar nisbati berilgan yagona sharhi haqida muhim ma'lumotlar taqdim etilgan. "Al-Fiqh al-absat" asarida bahs yurtilgan asosiy aqidaviy masalalar talqini yoritib berilgan. Imom Abu Hanifa ko'plab o'rinlarda adashgan firqalarning noto'g'ri aqidalariga raddiya berishda naqliy dalillar birga aqliy dalillarni keltirib o'tganini kuzatish mumkin. Asarning e'tiborli jihatlaridan biri uning savol-javob shaklida yozilganligi. Bu holat o'quvchida aqidaviy masalalarni yanada tushunarli bo'lishiga va yodda qolishiga yordam beradi. Mazkur asar hanafiy mazhabiga oid dastlabki aqida matnlari sifatida e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: *Aqida, raddiya, imon, islom, katta gunoh, mashiat, tavhid, qadar, qazo, qo'lyozma.*

Аннотация. *Хотя ислам впервые появился на Аравийском полуострове, позднее он распространился на земли Персии и Сирии во времена Рашидунского халифата, где большинство местного населения приняло ислам. Во время правления Умара (мир ему) Персидская империя была завоевана, и ислам начал распространяться на территории Ирака. Примечательно, что территория Ирака — Месопотамия — долгое время считалась одним из центров цивилизации. Представители различных национальностей и религий населяли этот регион. После того, как большинство местного населения приняло ислам, возникли различные споры с последователями других религий и учений относительно определенных вопросов веры. Основные и самые ранние секты ислама также возникли на территории Ирака. К ним относятся такие фракции, как хариджиты, мутазилиты и шииты. Имам Абу Ханифа, основатель ханафитского мазхаба, жил и работал в этом регионе. Помимо обучения фикху и акиде своих многочисленных учеников, имам Абу Ханифа участвовал в дебатах с представителями многих религиозных сект, существовавших в то время, защищая вероучение Ахль ас-Сунна вал-Джамаа. Согласно источникам, имам Абу Ханифа более двадцати раз ездил в город Басру, чтобы участвовать в дебатах с представителями различных заблудших сект. В своих работах по акиде имам Абу Ханифа не только излагал чистое вероучение Ахль ас-Сунна, но и давал опровержения заблудшим сектам. Одной из его значимых работ является «Ал-Фикх ал-абсат», в которой в формате вопросов и ответов излагаются вопросы акиды. В этой статье сначала анализируются взгляды на автора. Кроме того, в ней приводится важная информация об уникальном комментарии, приписываемом нескольким ученым. Статья посвящена толкованию основных вопросов акиды, обсуждаемых в «Ал-Фикх ал-Абсат». Имам Абу Ханифа часто использовал накл (Коран и хадисы), а также акл (рациональные аргументы) для опровержения ошибочных убеждений заблудших сект. Эта книга признана одной из самых ранних работ по акиде в ханафитской школе.*

Ключевые слова: *акида, опровержение, вера, ислам, большой грех, машиат, таухид, предопределение, судьба, рукопись.*

Abstract. *Islam originated on the Arabian Peninsula and later spread to Persia and the Levant during the era of the Rashidun Caliphs, leading to a significant portion of the local populations in those regions embracing the faith.*

During the reign of Umar (r.a.), the Persian empire was conquered and Islam began to spread into the territories of Iraq. "However, the territory of Iraq — the land between two rivers — has long been considered one of the centers of civilization. Various ethnic and religious groups have lived in this region." "After the majority of the local population

became Muslim, various religious disagreements arose with representatives of other faiths and doctrines. The main and earliest sects of Islam also emerged specifically in the territory of Iraq — such as the Kharijites, the Mu'tazilites, and the Shiites."

Imam Abu Hanifa, the founder of the Hanafi, lived and worked in this region. "Imam Abu Hanifa, while teaching numerous students the sciences of Fiqh and Aqidah, also engaged in debates with representatives of various sects that existed at the time and defended the creed of Ahl al-Sunnah wal-Jama'ah." "While teaching many students the sciences of fiqh and aqidah, Imam Abu Hanifa also engaged in debates with representatives of various sects that existed at the time and defended the creed of Ahl al-Sunnah wal-Jama'ah." "According to historical sources, Imam Abu Hanifa traveled to the city of Basra more than twenty times to engage in debates with representatives of various misguided sects. In his works on the science of creed ('aqidah), Imam Abu Hanifa not only presented the pure theological views of Ahl al-Sunnah but also refuted the claims of deviant sects." "One of such works is al-Fiqh al-Absat, in which theological issues are presented in a question-and-answer format. This article first analyzes various scholarly opinions regarding the authorship of the book. It also provides key information about the only known commentary attributed to several scholars. The article explores the main theological topics discussed in al-Fiqh al-Absat, highlighting how Imam Abu Hanifa, in many instances, refuted the incorrect beliefs of misguided sects by using both textual (naqli) and rational (aqli) proofs." "One of the noteworthy aspects of the work is that it is written in a question-and-answer format. This approach helps readers better understand and remember theological issues. The work is recognized as one of the earliest theological texts associated with the Hanafi school of thought."

Key words: *Aqidah, refutation, faith, Islam, major sin, mashiat, tawhid, destiny, fate, manuscript.*

KIRISH

Islom dinidagi e'tiqod asoslarini ifodalovchi Aqoid risolalari islom ulamolari tomonidan dinning ikki asosiy manbasi – Qur'oni karim va hadisga tayangan holda yozilgan. Shunday qilib, to'g'ri va to'liq e'tiqod qilish lozim bo'lgan narsalarni belgilash, musulmonlarning imon asoslarini ba'zi xurofotlardan himoya qilish kabi asosiy ehtiyojlar qondirildi. Imom Abu Hanifa bu masalaga ilmiy fanda birinchi bo'lib nazar tashlagan.

1. "Al-Fiqh al-absat" asari manbalarda "ar-Radd alal qadariya" nomi bilan ham mashhur bo'lgan (Aminov Hamidullo, 2022:61). Mazkur asarni Abu Mute' Balxiy Imom Abu Hanifadan rivoyat qilgan. Ya'ni ushbu asarda Abu Mute' Balxiy Imom Abu Haniafadan savol-javob shaklida rivoyat qilgan aqidaviy masalalar jamlangan. "Al-Fiqh al-absat" asaridagi iboralarga nazar solinsa, go'yoyinki ba'zi savollarni bevosita so'ragan bo'lsa, ayrimlarni bevosita so'ramasdan boshqa orqali eshitgan so'ng ularni jamlab tartiblaganga o'xshaydi. Bu holatni har bir aqidaviy masalaning boshlanishidan bilish mumkin. Chunki ba'zi o'rinlarda masala so'roq siyg'asi bilan boshlansa, ayrim o'rinlarda Imom Abu Hanifadan rivoyat qilish bilan boshlanadi.

"Al-Fiqh al-absat" asari Imom Abu Hanifaning boshqa kitoblardan farqi imlo uslubida yozilmagan. Shuning uchun ba'zi olimlar aqidaviy masalalarni jamlash va rivoyat qilish e'tiboridan mazkur asarni Abu Mute' Balxiyga nisbat beradi. Xuddi hadis kitoblari ularni jamlovchisiga nisbat berilgani kabi. Ammo asardagi aqidaviy masalalar aytuvchisi va egasi e'tiboridan Imom Abu Haniafaga berilishi to'g'ri bo'ladi. Faqatgina undagi masalalarni shogirdi Abu Mute' Balxiy jamlagan xolos. Ushbu asardagi aqidaviy masalalarning ko'proq qismini Abu Mute' Balxiy Imom Abu Hanifaning nomini zikr qir qilmasdan bevosita o'zi rivoyat qiladi.

Ulamolar mazkur asarni Abu Mute' Balxiy rivoyat qilgan "al-Fiqh al-akbar" deb nomlasalar, gohida "ar-Radd alal qadariya" ("Qadariylarga raddiya") ataydilar. Chunki asardagi aksar aqidaviy masalalar qadariylarga raddiya hisoblanadi. Qadariylarning ahli sunna val jamoa bilan aqidaviy masalalarda ixtilof qilishining asosiy sabablaridan biri aqlni naqldan, ya'ni Qur'on va hadisdan ustun qo'yganliklaridir. Mutaaxxir ulamolar esa uni "al-Fiqh al-akbar" asaridan farqlash uchun "al-Fiqh al-absat" deb nomlaganlar.

USLUBLAR

"Al-Fiqh al-absat" asari muallifi Imom Abu Hanifa ekani borasida hozirgi davrda turli qarashlar mavjud bo'lib, ba'zilar uni Imom Abu Hanifa yozmagan, degan fikrni ilgari suradi. Lekin ko'pchilik ulamolar mazkur asar Imom Abu Hanifaga tegishli ekanini dalillar bilan isbotlashgan. Jumladan, Imom Abu Hanifaning barcha asarlarining zamonaviy nashrini amalga oshirgan tadqiqotchi Akram Muhammad Ismoil Abu Avvod "al-Fiqh al-absat" asarining uchta sanadini zikr qilgan:

1-sanad: Shayxul islom Mustafo Oshir (1142-1219/1729-1804) – Shayx Husayn ibn Muhammad ibn Hasan Mimiy Basriy – Abu Sulaymon Muso ibn Farhod Shahruziy Basriy – Abu Tohir Muhammad ibn Ibrohim Kuroniy (1081-1145/1670-1732) – Burhon Ibrohim ibn Hasan Kuroniy (1025-1101/1616-1690) – Xayriddin Ramliy (993-1081/1585-1670) – Muhammad ibn Siroz Umar Honutiy (928-1010/1522-1601) – Sirojiddin Honutiy Xolidiy Hanafiy (vaf. 1039/1629 y.) – Muhib Muhammad ibn Jarbosh (975/1567 yildan keyin vafot etgan) – Abulxayr Muhammad ibn Muhammad Rumiy (vaf. 897/1492 y.) – Abulfath Muhammad ibn Muhammad Haririy (780-864/1378-1460) – Abulfath Muhammad Haririy – Qivomiddin Itqoniy (685-758-/1286-1357) – Hisomiddin Sig'noqiy (vaf. 710/1310 y.) – Hofizuddin Muhammad Buxoriy (vaf. 693/1294 y.) – Muhammad Abdussator Kardariy (599-642/1202-1244) – Burhoniddin Marg'inoniy

(530-593/1136-1197) – Ziyouddin Muhammad ibn Husayn Nusuxiy (vaf. 545/1150 y.) – Alouddin Samarqandiy (vaf. 575/1179 y.) – Abul Muin Nasafiy (438-508/1046-1114) – Husayn ibn Ali Qoshg‘ariy (vaf. 484/1091 y.) – Abu Molik Nasron ibn Nasr Xatliy – Ali ibn Hasan ibn Muhammad G‘azzol – Abulhasan Ali ibn Muhammad Balxiy Forisiy (330/942 yildan keyin vafot etgan) – Nusayr ibn Yahyo (vaf. 268/881 y.) – Abu Mute’ Balxiy (vaf. 199/814 y.) – Imomi A’zam (80-150/699-767) (Imom Abu Hanifa/Tahqiq: Doktor Muhammad ibn Ismoil Abu Avvod, 2022:112-119).

2-sanad: Shayx Faqih Zohid Muhammad ibn Husayn ibn Abdulamin G‘ubadiniy (vaf. 505/1111 y.) – Hokim Abu Mansur Ahmad ibn Abdulloh ibn Ash’as – Shayx Abu Bakr Muhammad ibn Sulaymon Koxushtuvoniy (vaf. 449/1057 y.) – Shayx Faqih Abu Said Sa’d ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Bakr Bastiy Jurmuqiy – Shayx Abulhasan Ali ibn Ahmad ibn Muso Forisiy (330/942 yildan keyin vafot etgan) – Nusayr ibn Yahyo Abu Bakr (vaf. 268/881 y.) – Abu Mute’ Hakam ibn Abdulloh Balxiy (vaf. 199/814 y.) – Abu Hanifa Nu’mon ibn Sobit (80-150/699-767) (Imom Abu Hanifa, Inv. №: 587:147[a]).

3-sanad: Shayx Abu Zakariyo Yahyo ibn Mutrif (512/1118 yillar atrofida vafot etgan) – Abu Solih Muhammad ibn Husayn (vaf. 423/1032 y.) – Abu Said Sa’don ibn Muhammad ibn Bakr ibn Abdulloh Bastiy Jurmuqiy – Husayn ibn Ahmad ibn Marvon Forisiy (330/942 yildan keyin vafot etgan) – Nusayr ibn Yahyo Abu Bakr (vaf. 268/881 y.) – Abu Mute’ Hakam ibn Abdulloh Balxiy (vaf. 199/814 y.) – Abu Hanifa (80-150/699-767) (Imom Abu Hanifa, Inv. №: 215).

“Al-Fiqh al-absat” asari Imom Abu Hanifaning ikkita risolasi “Kitob al-olim val-mutaallim” va “Rislotun ila Usmon al-Battiy” bilan Zohid Kavsariy tahqiqi birinchi marta 1368/1949 yil nashr etilgan. Imom Abu Hanifaning “al-Fiqh al-absat” va boshqa aqidaviy asarlarining matnlarini jamlagan kitoblardan biri Ahmad ibn Hasan ibn Shayx Sinoniddin Bayoziy Rumiyning (vaf. 1098/1687 y.) “al-Usul al-munifa” (“Yuksak aqidaviy masalalar”) nomli asaridir. Alloma Bayoziy mazkur asarning muqaddimasida quyidagilarni zikr qiladi: “Men bu kitobimda imomlar rivoyati bilan rivoyat qilingan “al-Fiqh al-akbar”, “Kitob al-olim val-mutaallim”, “Rislotun ila Usmon al-Battiy”, “al-Fiqh al-absat” va “al-Vasiyat” asarlarining matnlarini jamladim. Bularga imomlar rivoyatlari bilan naql qilingan yigirmata aqidaviy masalalar va oliy isnodlar bilan rivoyat qilingan e’tiqodga oid qirqta hadisni qo‘shdim hamda bularning barchasini muaqaddima, uchta bob va xotima shaklida tartibladim. So‘ngra bu kitobga “Ishorot al-marom min iborot al-Imom” (“Imomning iboralaridan ko‘zlangan maqsadga ishoralar”) nomli sharh yozdim”. Mazkur sharh 1321/1903 yil Haydarobod shahrida “Majlis al-maorif an-nizomiya” matbaasida nashr qilingan. Keyinchalik 1946 yil Muftiy Rashid Ahmad Alaviy tomonidan “Al-Mutun as-sab’a fi aqoid ahlis-sunna” (“Ahli sunna aqoidiga oid yettita matn”) nomli asar tarkibida nashr etilgan. Ushbu yettita matnlar tarkibida Bayoziyning “al-Usul al-munifa”, Abulmuntaho Mag‘nisoviyning (vaf. 1000/1592 y.) “Sharh al-fiqh al-akbar”, Abu Mansur Moturidiyning “Sharh al-fiqh al-absat”, “Kitob al-olim val-mutaallim”, “Rislotun ila Usmon al-Battiy”, “al-Vasiyat” va “Bayon ahlis-sunna” asarlari o‘rin olgan.

“Al-Fiqh al-absat” asarining bir necha marotaba nashr etilgan mashhur sharhi bo‘lib, Brokkelman va Zohid Kavsariylar uni Abul Lays Nasr ibn Muhammad Samarqandiyga (vaf. 373/983 y.) nisbat berishadi.

Fuod Sezgin esa mazkur sharhni bir o‘rinda Xatiriyga niisbat bergan bo‘lsa, boshqa o‘rinda Ato ibn Ali Juzjoniyga nisbat beradi va Juzjoniyni hijriy 687 yildan keyin vafot etgan, deb zikr qiladi. Fuod Sezgin ushbu masalada uchta xato qilgan. Birinchisi bitta sharhni ikki olimga nisbat bergan bo‘lsa, ikkinchi va uchinchisi Juzjoniy va Xatiriylarning vafot etish sanalarini belgilashda xato qilgan. Mazkur sharh ham 1321/1903 yil Haydarobodda nashr etilgan va muallifi sifatida Abu Mansur Moturidiy (vaf. 333/944 y.) ko‘rsatilgan. Lekin ko‘pchilik tadqiqotchilar bir nechta sabablarga ko‘ra mazkur sharh muallifi Imom Abu Mansur Moturidiy ekanini haqiqatdan yiroq, deb hisoblaydilar. Eng avvalo shuni aytish lozimki, mazkur sharhda ash’ariylar zikr qilingan. Vaholanki, Abu Mansur Moturidiy yashagan davrda ash’ariya ta’limoti paydo bo‘lmagan edi. Ash’ariya mazhabi hijriy IV asrdan keyin paydo bo‘lgan (Şükrü Özen, 2003:149-150.; Ahmet Ak, 2008:16) Mazkur sharhning Imom Abu Mansur Moturidiyga berilishining sabablaridan biri allomaning so‘zlaridan ko‘p o‘rinlarda iqtiboslar keltirilgan. Shu e’tibordan ham Imom Moturidiyga nisbatlangan bo‘lishi mumkin. Boshqa jihatdan ushbu sharh bir qancha manbalarda Abul Lays Samarqandiy, Ismoil Xatiriy va Ato ibn Juzjoniy kabi olimlarga ham nisbat berilgan.

NATIJA

Mazkur sharhning alloma Xatiriyga nisbat berilishi ham haqiqatdan yiroq hisoblanadi. Chunki mazkur allomaning ismi va yashagan davri borasida katta ixtiloflar mavjud. Chunki alloma Maltiy Xotiriyning “Tarix al-adab al-arabiy”dan tashqari birorta tarojim kitoblarida Xatiriyning ismi zikr qilinmagan. Mazkur sharh qo‘lyozmlarida ushbu olimning ismi turlicha – Xotiriy, Xaziriy va Xatiriy shaklida uchraydi. Ushbu olimning ismi va yashagan davri qanday bo‘lishidan qat’i nazar hozir kunda mavjud qo‘lyozmalarning ba’zi u yashagan davrdan oldin yozilgan.

Shuningdek, ba’zi qo‘lyozmlari va fehristlarda mazkur sharh Muhammad ibn Muhammad ibn Abdussator Kardariyga (vaf. 642/1244 y.) nisbat berilgan. Lekin bu borada ishonchli bir ma’lumot uchramaydi. Chunki hozirgi kundagi mazkur sharhning ba’zi qo‘lyozmalari Kardariyning

tavalludidan oldin yozilgan. Zohid Kavsariy “Kitob al-olim val-mutaallim” asarining muqaddimasida mazkur sharhni Abul Lays Samarqandiyga nisbat bergan. Qolaversa, ba’zi qo‘lyozmalarda ham Abul Lays Samarqandiyga nisbat berilgan. Lekin bu nisba ham bir nechta sabablarga ko‘ra to‘g‘ri emas. Birinchidan tarixiy kitoblar va manbalarda biror kishi ushbu sharhni Abul Lays Samarqandiyga nisbat bermagan. Vaholanki, allomannig asarlari va kitoblari mashhur hisoblanadi. Mazkur sharhning muallifi Abu Lays Samarqandiy emasligiga asosiy sabablardan biri undagi bayon qilingan aqidaviy masalalar hisoblanadi. Mazkur sharhni o‘qigan kishi uning muallifi Buxoro madrasasidan yetishib olim ekanini biladi. Ya’ni undagi bayon qilingan aqidaviy masalalar Samarqand aqida madrasasi qarashlariga mos emas. Bu aqidaviy masalalarni talqin qilishdagi shorihning tabiatidan ochiq-oydin ko‘rib turinadigan yo‘nalish hisoblanadi. Xususan, Qur’onning maxluq emasligi va shu kabi aqidaviy masalalar bayonida ushbu sharh muallifi Buxoro aqida madrasasi vakili ekanini bilish mumkin. Mazkur sharhning Alloh taolo makondan behojat ekani mavzusida “Faqih Abul Lays rahimahulloh aytdi...” Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hanafiy Samarqandiy Moturidiy (1321/1903:25), degan jumla keladi. Mazkur jumla ushbu sharhning muallifi Abu Mansur Moturidiy ham, Abul Lays Samarqandiy ham emasligiga dalolat qiladi. Birinchidan Faqih Abul Lays Samarqandiy Imom Moturidiydan taxminan ellik yil keyin vafot etgan. Ikkinchidan sharh muallifi Faqih Abul Lays Samarqandiyning o‘zi bo‘lganida bunday jumla ishlatmagan bo‘lar edi.

Mazkur sharh muallifi bir nechta sabablarga ko‘ra Atoiddin Juzjoniy ekani haqiqatga yaqinroqdir. Birinchidan, Qozi Kamoliddin Bayoziy “Ishorot al-marom min ibora al-Imom” asarida u (“Al-Fiqh al-absat”)ni Faqih Ato ibn Ali Juzjoniy sharhlaganini zikr qilgan va bir nechta o‘rinlarda undan naql qilgan. Ikkinchidan ko‘p qo‘lyozma nusxalarida mazkur sharh Juzjoniyga nisbat berilgan. Xususan, eng qadimgi qo‘lyozma nusxasida ham Juzjoniyga nisbat berilgan. Ushbu eng qadimgi qo‘lyozma 565/1170 yilda Bag‘dodda ko‘chirilgan nusxadan naql qilingan. Shunga ko‘ra Juzjoniy bu sanadan oldin yashagan bo‘lib chiqadi va taxminan 450-550/1058-1155 yillar oralig‘ida yashagani ma’lum bo‘ladi.

MUHOKAMA

“Al-Fiqh al-absat” asarida Abu Mute’ Balxiyning aqidaga oid savollari va ularga Imom Abu Hanifaning bergan javoblari o‘rin olgan. Germaniyalik tadqiqotchi Ulrix Rudolfning ta’biricha “al-Fiqh al-absat” asari hanafiy mazhabiga oid ilk matnlarning oxirgisi hisoblanadi. Shuningdek, ushbu tadqiqotchi “al-Fiqh al-absat” asarining muallifi Imom Abu Hanifa emas balki Abu Mute’ Balxiy ekanini isbotlashga va bir nechta asoslar keltirishga harakat qiladi. Jumladan, Zahabiy “al-Fiqh al-absat” asarining muallifi Abu Mute’ Balxiy tasdiqlaganini hamda asarning bayon uslubi va ancha murakkab bo‘lgan mavzular doirasi ushbu fikrlar Imom Abu Hanifaga emas balki shogirdiga tegishli ekaniga asosli dalil bo‘lib xizmat qilishini zikr qiladi (Ulrix Rudolf, 2001:57).

Umuman olganda, Sharqda hanafiy mazhabining keng tarqalishida Abu Mute’ Balxiyning katta xizmati bor. U 16 yil mobaynida Balxda qozilik faoliyati bilan shug‘ullangan. U umrining asosiy qismini Balx shahrida o‘tkazib, shogirdlariga fiqhdan ta’lim bergan va ilohiyot masalalarining bilimdoni sifatida tanilgan. Alloma xalifa Horun Rashidga (786-809) Qur’ondan bo‘lar-bo‘lmasga noo‘rin iqtiboslar keltiraverishiga keskin qarshi chiqib maktub yozgani to‘g‘risida maktub yozgani zikr qilingan. U shaxsan shahar hokimining o‘zini muqaddas kitobga bunday yengil-yelpi va mensimay munosabatda bo‘lish oqibati kufr ekani haqida ogohlantirgan. Keyinroq esa shu gaplarini masjid minbaridan turib barcha mo‘minlarga yetkazgan. Ehtimol bunday xatti-harakatlar Abu Mute’ning “al-Amru bil ma’ruf van-nahyu anil munkar” masalasiga jiddiy munosabatda bo‘lgan olim sifatidagi obro‘sini mustahkamlagan (Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Moturidiy, 2003:456).

Ba’zi manbalarda Abu Mute’ Balxiyning jahmiy bo‘lgani ayblovi ilgari suriladi. Xususan, zamondosh tadqiqotchilardan Muhammad ibn Abdurrahmon Xamis o‘zining “Usul ad-din” asarida Ibn Main, Abu Hotim, Ibni Hibbon va Zahabiylardan turli rivoyatlarni naql qilib, Abu Mute’ Balxiyni jahmiy va murjiiy ekanini isbotlashga harakat qiladi , (Muhammad ibn Abdurrahmon Xamis, 2007:89). Buning tasdig‘i sifatida “Na jannat va na do‘zax abadiy emas”, degan so‘zning nisbatini unga berishadi. Biroq bu fikr olimga qizg‘in bahslar asnosida berilgan bo‘lishi mumkin. Chunki olim “al-Fiqh al-absat” asarida e’tirozga o‘rin qoldirmaydigan darajadagi aniqlik bilan o‘zining jahmiylikdan, xususan ushbu fikrdan uzoq ekanini ochiqcha zikr qilgan. Olimning faoliyati tor doirada cheklanib qolmagan balki “al-Fiqh al-absat” asari tufayli keng tarqalgan (Abdurashid qori Baxromov, 2003:86-112).

“Al-Fiqh al-absat” asari moturidiylar va sharqiy ash’ariylar matnlarida ham tilga olinadi. Imomul haramayn Juvayning (vaf. 478/1085 y.) “al-Kofiya fi al-jadal” asaridagi ma’lumotga ko‘ra, ash’ariya ta’limotiga mansub alloma Abu Bakr Furak (vaf. 406/1015 y.) ushbu asarga sharh yozgan. Biroq Ibn Furakning “al-Fiqh al-absat” asariga sharh yozganligi to‘g‘risida Juvayning ma’lumotidan boshqa biror qayd yo‘q. Boshqa jihatdan esa Fuod Sezgin Sulaymoniya kutubxonasi “Murod Mulla” bo‘limida bir majmuaning ichida joy olgan va matn qismining taqriban boshida muallifning ismi Abu Bakr Muhammad ibn Hasan ibn Furak, deb yozilgani lekin bu asar Imom Abu Hanifaga nisbat beriladigan “Kitob al-olim val-mutallim”ning sharhi

ekani haqida ma'lumot bergan (Bu sharh Murod Molla kutubxonasidagi nusxa hamda zurix Sharqshunoslik markazi kutubxonasidagi 8022-raqamli boshqa nusxa asosida tahqiq qilingan. (Ebû Bekr Muhammed b. Hasan İbn Fûrek, 2009). Agar mazkur ma'lumot to'g'ri bo'lsa, Juvayniy Ibn Furak "al-Fiqh al-akbar"ga sharh yozgan, degan so'zidan "Kitob al-olim val-mutallim"ga sharhini nazarda tutgan bo'lishi mumkin.

Kotib Chalabiy bibliografik asari "Kashf az-zunun"da Abu Hanifaning Abu Mute' Balxiy tarafidan naql qilingan "al-Fiqh al-akbar" haqida ma'lumot berarkan asosan Hammod ibn Abu Hanifa orqali rivoyat qilingan "al-Fiqh al-akbar" xususida yozilgan ba'zi sharh va manzumalarni zikr qilgan (Kâtib Çelebî, 1972:1276). G'arb tadqiqotchisi Vensink "al-Fiqh al-absat" asaridagi o'nta maqoladan to'qqiztasi "al-Fiqh al-akbar"da ham mavjud ekanini zikr qiladi. Bulardan oltitasi asarning boshida jamlangan. Yettinchi, sakkizinchi va to'qqizinchi bandlar esa matn bo'ylab sochib yuborilgan (A. J. Wensinck, 1932:122-123).

"Al-Fiqh al-absat" asarining shakliga kelsak, uning "Kitob al-olim val-mutaallim" bilan o'xshashligi faqat tashqi jihatdan xolos. Ushbu ikki risolani birlashtirib turgan omil albatta har ikkisi savol-javob shaklida tuzilganidir. Biroq, "Kitob al-olim val-mutaallim"ga adabiy ishlov berilgani va u aniq tuzilishga ega bo'lgani tufayli o'zining savol-javob diolog nomini nafaqat shakl balki mazmun darajasida oqlasa, "Al-Fiqh al-absat" esa ko'proq bir-biri bilan faqat fikriy bog'liqlik bo'lgan ayrim mulohazalar majmuini eslatadi. Abu Mute' Balxiy savollari deyarli barcha o'rinlarda qisqa va bir-biri bilan bog'lanmagan. Ustozi Imom Abu Hanifa javoblari esa aksincha uslubning puxtaligi va bayonning mufassaligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari muallif o'z dalillarini ko'p o'rinlarda hadislardan olib, fikrlarini hamma vaqt ham ochiq matn orqali bayon etmaydi-da, iqtiboslar shaklida taqdim etadi. "Al-Fiqh al-absat" asaridagi aqidaviy masalalar Imom Abu Hanifaning boshqa asarlaridagi e'tiqodiy mavzulardan katta farq qilmasa-da, qazo va qadar hamda imon masalalari ko'proq yoritilgan.

TAHLIL

Imom A'zam Abu Hanifaga nisbat berilgan bu risola muallif hayotligida muhokama qilingan aqidaviy masalalar haqidadir. O'nga yaqin mavzudan iborat qisqa matndan iborat ekanligi tushuniladi. Ushbu bahslarning asosiy mavzulari, ya'ni mazmuni quyidagilardan iborat:

Abu Mute' Balxiy asarni hamdu sano va salovat bilan boshlagandan keyin Imom Abu Hanifadan katta fiqh, ya'ni e'tiqodiy masalalar haqida savol beradi. Imom Abu Hanifa mazkur savolga ahli sunna val jamoaning asosiy yettita xususiyati bo'lgan javobni berdi:

- *biror kishini gunoh tufayli kofirga chiqarmasliging;* Mazkur iborada xavorijlarga raddiya bor. Chunki xavorijlar "Biror katta yoki kichkina gunoh qilgan kishi kofir bo'ladi, imondan ajraydi va do'zaxda abadiy qoladi", degan aqidaviy qarashlarni ilgari suradi. Murjia firqasi e'tiqodiga ko'ra imon bilan birga gunoh zarar qilmaydi, xuddi kufr bilan birga toat amallar foyda bermagni kabi. Shuningdek, mo'tazila firqasining mazkur masala yuzasidan qarashlari xato ekaniga ishora bor. Chunki ular ham katta gunoh qilgan mo'min imonidan mahrum bo'ladi, deydilar (Abul Yusr Muhammad Pazdaviy, 2005:225).

- *ahli qibladan biror kishining imonini rad etmasliging;* Mazkur masalada mo'tazila firqasiga raddiya bor. Chunki ularning qarashlariga ko'ra "Katta gunoh qilgan kishi kufrga kirmasa-da imondan chiqadi hamda musulmon, deb nomalansa-da, mo'min ham, kofir ham deb nomlanmaydi. Balki imon va kufr manzilalarining o'rtasida bo'ladi. Qachon Allohga tavba qilsa va gunohidan qaytsa, imon doirasiga kiradi. Agar qilgan o'sha katta gunohidan tavba qilmasdan vafot etsa, kufr doirasiga kiradi va do'zaxda abadiy qoladi" (Abul Muin Maymun ibn Muhammad Nasafiy, 1990:467).

- *yaxshi ishlarga buyurishing va yomon ishlardan qaytarishing*; Mazkur iborada yaxshi ishlarga buyurish va yomon ishlardan qaytarishni vojib, deb e'tiqod qilmaydigan jabariylarga raddiya bor. Vaholanki, yaxshi ishlarga buyurish va yomon ishlardan qaytarish ahli sunna val jamoa nazdida farzi kifoya hisoblanadi. Mazkur masala borasida Imom Abu Hanifa tobein Ato ibn Abu Rabohdan rivoyat qiladi: Men Ibni Umar raziyallohu anhuning huzurida o'tirgan edim. Bir kishi kelib: "Ey Abu Abdurrahmon, Yaxshi ishlarga buyurish va yomon ishlardan qaytarish farzmi?" Ibni Umar raziyallohu anhu: "Ha", dedi. "Unday bo'lsa, uni tark etgan kishi kofir bo'ladimi?" "Yo'q, uni tark etgan kishi gunohkor bo'ladi". Keyin savol so'ragan kishi o'rnidan turib, Ibni Umar raziyallohu anhuning boshini o'pdi (Abdulazim ibn Abdulqaviy ibn Abdulloh Abu Muhammad Zakiyyiddin Munziriy, 1967:232-234). Mazkur masalada jabariylar ahli sunnaga xilof qiladi. Jabariylar aqidasiga ko'ra yaxshi ishlarga buyurish va yomon ishlardan qaytarish vojib emas. Ular bu borada Moida surasining 105-oyatini dalil qiladilar:

"يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا عَلَيْكُمْ أَنْفُسَكُمْ لَا يَضُرُّكُمْ مَنْ ضَلَّ إِذَا اهْتَدَيْتُمْ"

"Ey, imon keltirganlar! O'zingizga qarangiz! Modomiki, hidoyat topgan ekansiz, adashganlarning sizlarga zarari yo'q".

Ahli sunna ulamolari amri ma'ruf va nahiy munkar "Oli Imron" surasining 104-oyati bilan vojib bo'lganligini ta'kidlaydi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hanafiy Samarqandiy Moturidiy (1321/1903:7-8).

- *boshingga tushgan narsa yetmasdan qolmasligini va boshingga yetmagan narsa yetmaydi, deb bilishing*; Mazkur iborada qadariya va mo'tazila firqalariga raddiya bor. Qadariya firqasi taqdirni va Alloh narsalarni sodir

bo‘lishidan oldin bilishini ham inkor qiladi. Ularning qarashiga ko‘ra Alloh taolo ishlarni azalda taqdirda bitmagan va ishlar o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladi. Mazkur qarashga ega bo‘lgan qadariylik firqasi hozirgi davrda yo‘q bo‘lib ketgan. Mutaaxxir qadariylar esa yaxshilik Allohdan, yomonlik boshqadan bo‘ladi, degan e’tiqoddalar. Mo‘tatiza firqasi ko‘pgina e’tiqodiy masalalarda qadariylar bilan hamfikr hisoblanadi. Mazkur ikki firqaning e’tiqodiga ko‘ra insonning gunoh fe’li Allohning irodasi va xohishi bilan bo‘lmaydi. Agar Alloh taolo gunohkorning gunoh qilishi va kofirning kufr keltirishini iroda qilsa so‘ng ular tufayli azoblasa, bu zulm bo‘ladi. Vaholanki, Alloh taolo zulm bilan sifatlanishdan pok. Shu e’tibordan ular ahli sunna vakillarini “Ahlul javr” (“Zulm egalari”), o‘zlarini esa “Ahlul adl” (“Adolat egalari”), deb nomlaydilar.

- *Rasulullоh sallallohu alayhi va sallamning sahobalaridan birortasidan o‘zingni chetga olmaslining;* Mazkur matnda xavorij va rofiziya firqalariga raddiya bor. Xavorij firqasi Usmon va Ali raziyallohu anhumlardan o‘zlarini uzoq tutishsa, rofiziylar Ali raziyallohu anhudan boshqa barcha sahobalardan o‘zlarini uzoq tutishadi. Vaholanki, bunday aqidaviy qarash ahli sunna val jamoa e’tiqodiga ziddir. Chunki ahli sunna vakillari barcha sahoblarni do‘st tutadi va hurmat qiladi.

- *sahobalardan birini qo‘yib, boshqa birini do‘st tutmasliging;* Ushbu masalada shia firqasiga raddiya bor. Chunki ular faqtgina Ali raziyallohu anhuni do‘st tutadilar. Ahli sunna esa ularga

أَصْحَابِي كَالنُّجُومِ فَبِأَيِّهِمْ اقْتَدَيْتُمْ اهْتَدَيْتُمْ

“Sahoblarim yo‘lchi yulduzlar kabidir. Ularning qaysi biriga ergashsangiz, to‘g‘ri yo‘l topasiz”, hadisi bilan raddiya bildiradi.

- *Usmon va Ali raziyallohu anhum ishlarini Alloga havola qilishing*, *ya’ni ulardan birini ikkinchisidan afzal, deb bilmasliging*; Ba’zi ahli sunna ulamolari Abu Bakr va Umar raziyallohu anhumlarni boshqalardan ustun qo‘yishga ittifoq qilishganidan so‘ng Usmon va Ali raziyallohu anhumlarning birini ikkinchisidan afzal, deb bilish borasida ixtilof qilishgan. Ba’zilar Usmon raziyallohu anhuni ustun qo‘yib keyin sukut qilgan. Ayrimlar Ali raziyallohu anhuni Usmon raziyallohu anhudan ustun qo‘ygan (Abu Salama Buxoriy, 2021:35-36). Ba’zilar bu borada tavaqquf qilishgan. Ushbu asardagi mazkur rivoyat bu borada Imom Abu Hanifaning pozitsiyasi tavaqquf ekaniga dalolat qiladi. Lekin “al-Fiqh al-akbar” (Abdulqodir Abdurahim o‘g‘li, 2007:83-92) va “al-Vasiyat” asarlarida kelgan rivoyatlar Imom Abu Hanifa Usmon raziyallohu anhuni Ali raziyallohu anhudan ustun, deb bilishidan darak beradi (Akmaliddin Muhammad ibn Muhammad Bobartiy Hanafiy, 2009:98-103). Shamsulaimma Saraxsiy ham mana shu fikr hanafiy mazhabining asosiy qarashi ekanini qayd etgan (Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Sahl Shamsulaimma Saraxsiy, 1971:157).

Imom Abu Hanifa diniy ilmlarni bilish ilmdan afzal ekani hamda kishi Parvardigoriga qanday ibodat qilishini bilishi ko‘p ilmlarni jamlashidan yaxshiroq ekanini alohida ta’kidlab o‘tgan. Asarning sharhida ham diniy ilmlarni o‘rganish birlamchi, boshqa ilmlarni o‘rganish keyingi o‘rinda turishi ta’kidlangan. Shuningdek, mazkur masala Payg‘ambar (a.s.)ning “Ilm talab qilish har bir musulmon erkak va ayolga farzdir” hadisi bilan dalillangan.

1. Abu Mute’ Balxiyning imon mohiyati haqida savoliga Imom Abu Hanifa muhhadislar o‘rtasida “Jibril hadisi” nomi bilan bo‘lgan mashhur hadisni dalil keltirgan holda javob berdi. Mazkur masala asarning sharhida quyidagicha bayon qilingan: “Imon, islom, tavhid va ma’rifat tushunchalari bitta ham, bir-biridan ayri ham emas. Qachoniki ular jamlansa, barchasi din hisoblanadi”. Bu fikrni moturidiya ta’limoti mashhur namoyandalaridan Abu Shakur Solimiy Keshiyning “at-Tamhid fi bayon at-tavhid” asarida ham kelganligini kuzatish mumkin (Abu Shakur Muhammad ibn Abdulloh Solimiy Keshiy, 2014:190-192).

Shuningdek, maxluqotlardan birortasining Yaratuvchisini “Buning yaratuvchisi kim ekanini bilmayman?” degan ma’noda inkor qiluvchining kofir ekanini namoz va ro‘za masalalari misolida bayon qilgan. Agar namoz va ro‘za kabi farz amallar to‘g‘risidagi oyatlarga imon keltirsayu lekin mazkur oyatlarning ta’vili va tafsirini bilmasa, bunday shaxs kofir hisoblanmasligini alohida ta’kidlangan. Chunki u Qur’on oyatiga imon keltirdi faqat tafsirida xato qildi. Agar islom dinidagi biror amalni bilmasa va inkor ham qilmasa lekin faqat imon keltirishga iqror bo‘lsa va shu holatda vafot etsa ham mo‘min bo‘lishini zikr qilgan. Imom Abu Hanifaning ushbu javobidan ikkita muhim aqidaviy masalani xulosa qilib olish mumkin. Birinchisi muqallidning imoni sahih ekani va ikkinchisi “imon – til bilan iqror bo‘lish va qalb bilan tasdiqlashdan iborat ekani”. Amal imon tarkibiga kirmasligi ham ma’lum bo‘ladi. Mo‘tazila va ash’ariya mazhab vakillari muqallidning imoni sahih ekanini inkor qilishadi balki dalil orqali imon keltirishi vojib bo‘ladi, deydilar Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hanafiy Samarqandiy Moturidiy (1321/1903:15-16).

Shu o‘rinda mo‘tazila, moturidiya va ash’ariya mazhablari o‘rtasidagi ixtilofli bo‘lgan masala, ya’ni shariat da’vati yetib bormagan kishining oxiratdagi holatiga ham aniqlik kiritilib, uning mo‘min bo‘lishini qayd etilgan (Imom Abu Hanifa/Tahqiq: Doktor Muhammad ibn Ismoil Abu Avvod, 2022:301). Mo‘tazila firqasi vakillari shariat da’vati yetib bormagan insonga ham aqli bo‘lgani sababidan imon keltirish vojib, aks holda kofir bo‘lishini ta’kidlashsa, ash’ariya ta’limoti vakillari esa “Bunday holatdagi inson but-sanamlarga ibodat qilsa ham uzrli bo‘ladi. Chunki unga shariat da’vati yetib bormagan”, deyishadi (Abul Muin Nasafiy, 2022:19-20).

Inson amallari va fe'llarining vujudga kelishida Allohning mashiyati (xohishi)ni inkor qiladigan kishi haqidagi savolga Imom Abu Hanifa bir nechta mavzuga oid oyatlar bilan bunday kishi kofir bo'lmasligini balki oyatlar ta'vilda xato qilgan, deb javob beradi. Shuningdek, insonga biror ishni qilishga nisbatan Alloh tomonidan beriladigan qudratni ham yaxshi, ham yomon ishlarga sarflash mumkin ekanini va shu kuch-quvvatni yomon ishlarga sarflagani uchun jazolanishini ta'kidlagan. Shuningdek, yomonliklarni ham Alloh yaratishi va vujudga kelishini xohlashi hamda barcha ishlar Allohning irodasi bilan sodir bo'lishi borasidagi savollarga Imom Abu Hanifa aqliy dalillar bilan javob bergan va mazkur masalalarda mo'taziliylarga raddiya bergan. Chunki mo'tazila firqasi mazkur masalalarda ahli sunna val jamoaga xilof qiladi. Insondagi iroda erkinligi va fe'llarga nisbatan qudrat masalasi aqida ilmida eng nozik bo'lgani uchun mo'tazila firqasi "Inson o'z fe'lini o'zi yaratadi" deb g'uluvga ketgan bo'lsa, jabariya firqasi "Insonda o'z fe'liga nisbatan biror kuch-qudrat va ixtiyor yo'q", deb noto'g'ri qarashga yurishgan (G'ulomov Abdullo, 2023:82-88). Imom Abu Hanifa va uning shogirdlari mana shu o'rinda o'rta pozitsiyani bildirishgan: "Xalq – Allohning fe'li, u bandada fe'lga nisbatan qudratni yaratishdan iborat. Yaratilgan qudratni iste'mol qilish esa haqiqatda bandaning fe'li, majozan emas". Ushbu qarashda qadariylikdan ham, jabariylikdan ham uzoq bo'linadi.

Imom Abu Hanifa odil podshoga qarshi chiqish borasida savolga aqliy va naqliy dalillar bilan javob berib, avvalo ularga bu ishning noto'g'ri ekanini tushuntiriladi. Agar qabul qilmasa, ularga qarshi kurash mumkin ekanini oyat va hadislar bilan isbotlab bergan. Shuningdek, "al-Muhakkima" firqasi xavorijlarning eng yomoni ekani va ularning kufri Alloh taolo ularga ato qilgan ne'matlarga noshukrlik qilish ma'nosida ekanini alohida ta'kidlab o'tgan (Abulfath Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniy, 2007:92-94).

Imom Abu Hanifa "Mo'minmisan?" degan savolga "Alloh biluvchiroq", deb javob beradigan kishi imonida shak qiluvchi hisoblanadi, deb javob bergan. Mo'min kishi "Men haqiqiy mo'minman", deb aytishi lozim ekani borasida sahobalar Abdulloh ibn Mas'ud va Horis ibn Molik o'rtalarida bo'lib o'tgan voqeani dalil qilib keltiradi (Abu Nuaym Ahmad ibn Abdulloh ibn Ahmad ibn Is'hoq ibn Muso ibn Mehron Asbahoniy, 1415/1994:68). Shuningdek, bir inson "Men jannatiy yoki men do'zaxiy", deb aytish xato ekanini ta'kidlab o'tgan. Chunki o'zini jannatiy, degan kishi o'zidan xavfni soqit qilgan bo'ladi. O'zini do'zaxiyman, degan kishi noumid bo'lgan bo'ladi. Vaholanki, bu ikkisi ham joiz emas. Taniqli moturidiy ta'limoti ulamolaridan Abul Qosim Saffor 50 raqamli javobida mazkur masalaga quyidagicha fikr bildiradi: "Men jannatiyman", degan kishi Alloh taoloning azobidan omonda bo'luvchi va "Men do'zaxiyman", degan kishi Alloh taoloning rahmatidan noumid bo'luvchi bo'ladi. Alloh taoloning azobidan omonda bo'luvchi Alloh taoloni maxluqotlarni azoblashga qodir emas va Alloh taoloning rahmatidan noumid bo'luvchi esa maxluqotlarining gunohini mag'firat qilishga qodir emas, deb e'tiqod qilgan bo'ladi. Kim mana shunday e'tiqodga borsa, kofir bo'ladi".

Shuningdek, nohaq odam o'ldirgan yoki o'g'irlik qilgan yoki qaroqchilik qilgan yoxud zino qilgan yoki shu kabi katta gunoh qilgan kishi fosiq mo'min bo'lishi va kofir bo'lmasligini zikr qilgan. Katta gunoh qilgan mo'minlarni Alloh gunohlar tufayli do'zaxda azoblashi mumkin ekani, lekin oqibatda imoni tufayli do'zaxdan ozod qilinishini qayd etgan.

Imom Abu Hanifa Qur'oni karimda ochiqcha zikr zilingan payg'ambarlardan birortasining payg'ambarligini inkor qilish yoki "bilmayman" deb aytish kufr ekani va kofirlarning oxiratdagi joyi do'zax bo'lishida qat'iy pozitsiyada turish lozimligini alohida alohida qayd etgan. Bog'iylik masalasini Imom Abu Hanifa bir nechta oyat va hadislardan dalil keltirgan holda bayon qilgan. Shuningdek, Yaratuvchini makondan behojat ekani hamda Tavba surasining 101-oyati va Tur surasining 47 oyatlarini dalil keltirgan holda qabr azobiga imon keltirmaydigan kishi jahmiya firqasiga mansub bo'lishini zikr qilgan. Jahmiya, qadariya va mo'tazila firqalari aqlni eshitish, ko'rish, ta'm bilish, hidlash va ushlash kabi beshta sezgining yonida oltinchi his qiluvchi deb qabul qilishadi. Shundan kelib chiqib, ma'lum bir aqidaviy masalalar Qur'oni karim va sunnatda kelgan bo'lsa ham aqllariga to'g'ri kelmaganliklari uchun uni inkor qilishadi (Ashraf Ali Tahonaviy, 2022:112-116). Shu e'tibordan qabr azobi va jonsiz mavjudotlarning tasbeh aytishlarini inkor qilishadi. Ular aytadi: "Voqe'likda bizga yetadigan og'riqlar o'liklarga yetmaydi. Shunningdek, qabrda ham ularga azob bo'lmaydi. Agar jonsiz mavjudotlar tasbeh aytishganida biz uni eshitgan bo'lar edik".

Abu Mute' Balxiyning qotil insonning orqasida namoz o'qish borasidagi savoliga Imom Abu Hanifa har bir yaxshi va yomon imom orqasida namoz o'qish joiz ekani va yomon imomning gunohi o'ziga bo'ladi, deb javob bergan. Shuningdek, islom diniga mansub adashgan firqa soni yetimish uchtga bo'linishi va ahli sunna val jamoadan boshqa barchasi halok bo'luvchi ekanini bir nechta hadislarni dalil keltirib isbotlab bergan.

Alloning xohishi amriga muvofiq bo'lishi va yoki bo'lmaslik masalasi borasida savolga juda keng va mufassal javob bergan. Ya'ni Allohning xohishi har doim ham amri bilan birga bo'lmasligi va xohishi bilan roziligi boshqa-boshqa ekanini to'liq asoslab bergan. Insonlarning yaxshi ishlari Allohning xohishi, amri va rizosi bilan bo'lsa, yomon ishlarda Allohning amri va rizosi topilmaydi balki xohishi bilan vujudga keladi. Mazkur masalada Abu Mute' Balxiy bilan Imom Abu Hanifa o'rtasida mufassal savol javob bo'lib o'tadi (Imom Abu Hanifa/Tahqiq: Doktor Muhammad ibn Ismoil Abu Avvod, 2022:328-332). Chunki ushbu masala aqidaviy mavzular ichida eng daqiq va

o‘z navbatida muhim hisoblanadi. Ko‘pgina firqa va oqimlar shu masalani to‘g‘ri anglab yetmaganliklari bois xato e’tiqodiy qarashlarga ega (Primov Soatmurod, 2023:29).

Shuningdek, gunoh sababidan mo‘minlarni kofirga chiqaruvchilar borasidagi savolga Imom Abu Hanifa bir nechta oyatlarni dalil qilib, bu qarash xato ekanini balki mo‘min qilgan gunohi tufayli gunohkor bo‘lishini ta’kidlagan va ushbu masalani mashhur sahoba Muoz ibn Jabal Hims shahriga kelganida yosh bir yigit bilan o‘rtalarida bo‘lib o‘tgan voqea bilan qo‘llab-quvvatlaydi (Abdulloh ibn Muhammad ibn Ya’qub ibn Horis ibn Xalil Horisiy Subazmuniy Buxoriy, 2020:2904). Jannat va do‘zax hozirda yaratilmagan hamda ular keyin yo‘q bo‘lib, ketadi deguvchilarning so‘zini ham bir nechta oyatlar vositasida xato ekanini isbot beradi.

Mutashobeh sifatlar haqida hali sunna val jamoaning aqidaviy qarashalarini bayon qilgan. Shuningdek, Alloh taoloning makoni haqida savol berish noto‘g‘ri ekanini ta’kidlagan. Chunki biror makon yaratilishidan oldin ham Alloh mavjud bo‘lgani va biror makonga muhtoj emasligini zikr qilgan.

Insonda imon makoni va bandalar zimmasidagi Allohning haqlari haqida savollarga ham qisqacha va lo‘nda tarzda javo bergan. Shuningdek, Allohda mashiat (xohish) sifatining mavjudligiga o‘n beshta oyatdan dalil keltirgan. Asarning oxirida mo‘tazila firqasiga “aslah” masalasida raddiya berilgan.

XULOSA

Imom Abu Hanifaning “al-Fiqh al-absat” asarida kelgan haqiqatda o‘sha davrdagi ko‘plab ixtiloflarni oldini olishga xizmat qilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki shogirdi Abu mute’ Balxiy o‘sha davrda turli firqa va oqimlarning ilgari surayotgan iddiolari va qarshlari haqida bevosita ustozi Imom Abu Hanifadan so‘ragan va ularning javobini olgan. Shu nuqtai nazardan mazkur asardagi aqidaviy masalalar faqatgina nazari jihatdan emas balki amaliy jihatdan ham ko‘plab muammo va kelishmovchiliklarga yechim sifatida baholash mumkin.

Mazkur asarning hozirgi davrda ham o‘ziga xos qadr-qiymatga ega hisoblanadi. Chunki bugungi kunda turli balandparvoz shiorlar va iddiolarni ilgari surayotgan oqimlar ma’lum bir o‘rinlarda o‘tmishdagi firqalarning harakatlarini takrorlayotganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, Imom Abu Hanifa ma’lum aqidaviy masalalar borasida keltirgan oyatlar va hadislardan olimning tafsir va hadislar ma’nolarini tushunishda yetuk salohiyatga ega ekanini anglab yetish mumkin. Shu o‘rinda turli adashgan firqalarning e’tiqodiy qarashlarini oddiy aql vositasi bilan ham noto‘g‘ri ekanini isbotlab bergan. Bundan ma’lum bo‘ladiki, islom dinining sof e’tiqodiy qarashlari naqat Qur’oni karim va sunnatga balki sog‘lom tabiatga ega bo‘lgan insonlarning aqliga ham muvofiq keladi.

Aqidaviy masalalar har doim muhim va dolzarbligicha qolaveradi. O‘tmishda qanchadan qancha iqtisodiy jihatdan qudratli imperiyalar yoki davlatlar ichki e’tiqodiy ixtiloflar va kelishmovchiliklar tufayli tanazzulga uchragan. Aksincha, e’tiqodiy va mafkuraviy jihatdan ittiofq bo‘lgan millat yoki davlatlar katta-katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Insoniyat mavjud ekan, uning o‘ziga xos e’tiqodi va qarashlari bor. Yurtmizdagi aholining aksari musulmonlardan tashkil topgan. Shu e’tibordan yosh avlodlar islom dining sof e’tiqodiy qarashlari va o‘gitlari bilan tarbiyalansa, jamiyat yanada ma’naviy jihatdan yuksaladi va taraqqiy etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A. J. Wensinck. (1932). The Muslim Dogma: Its Genesis and Historical Development. – London: Cambridge University Press.
2. Ebû Bekr Muhammed b. Hasan İbn Fûrek. (2009). Şerhu’l-Âlim ve’l-müteallim, thk. Ahmed Abdurrahim es-Sâih & Tevfîk Ali Vehbe. – Kahire: Mektebetü’s-Sekâfeti’d-Dîniyye.
3. Kâtib Çelebî. (1972). Keşfü’z-zünûn an esâmî’l-kütüb ve’lfünûn (J. II). tsh. M. Şerefettin Yaltkaya - Kilisli Rifat Bilge. – İstanbul: Milli Eğitim Basımevi.
4. Şükrü Özen. (2003), Mâtürîdî. Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi (J. XXVIII) – Ankara: TDV Yayınları.
5. Абдулазим ибн Абдулқавий ибн Абдуллоҳ Абу Муҳаммад Закиййиддин Мунзирий. (1967). Ат-Тарғиб ват-тарҳиб мин ал-ҳадис аш-шариф (Ж. ИИИ). – Байрут: Дор иҳёи ат-турос ал-арабий.
6. Абдулқодир Абдураҳим ўғли. (2007). Ақоид дарслиги. – Тошкент: Тошкент ислом университети.
7. Абдуллоҳ ибн Муҳаммад ибн Яъқуб ибн Ҳорис ибн Халил Ҳорисий Субазмуний Бухорий. (2020). Кашф ал-осор аш-шарифа фи маноқибил имами Аби Ҳанифа (Ж. ИИ). – Истанбул: Мактабатул иршод.
8. Абдурашид қори Бахромов. (2003). Имоми Аъзам асарлари. – Тошкент: Мовароуннаҳр.
9. Абу Мансур Муҳаммад ибн Муҳаммад ибн Маҳмуд Мотуридий. (2003). Китобу-т-тавҳид / Таҳқиқ: Бекр Тупол ўғли ва Муҳаммад Оруший. – Анқара: Ширкату-н-нашр ва-т-тибоа ва-т-тижора.
10. Абу Мансур Муҳаммад ибн Муҳаммад ибн Маҳмуд Ҳанафий Самарқандий Мотуридий. (1321/1903). Шарҳ ал-фиқҳ ал-акбар. – Ҳайдаробод: Матбаа мажлис ал-маориф ан-низомия.
11. Абу Нуайм Аҳмад ибн Абдуллоҳ ибн Аҳмад ибн Исъҳоқ ибн Мусо ибн Меҳрон Асбаҳоний. (1415/1994). Муснаду ал-Имом Аби Ҳанифа ривояту Аби Нуайм. – Риёз: Мактабаатул кавсар.
12. Абу Салама Бухорий. (2021). Жумал усул ад-дин // Таржимон ва нашрга тайёрловчи: С.Примов. – Тошкент: Ўзбекистон халқаро ислом академияси.
13. Абу Шакур Муҳаммад ибн Абдуллоҳ Солимий Кеший. (2014). Ат-Тамҳид фи баёнит тавҳид // Таржимон ва изоҳлар муаллифи С.Примов. – Тошкент: Мовароуннаҳр.

14. Абул Муин Маймун ибн Муҳаммад Насафий. (1990). Табсирату-л-адилла фи усули-д-дин (Ж. I). / Таҳқиқ: Килоде Салома. – Дамашқ.
15. Абул Муин Насафий. (2022). Баҳрул калом // Таржимонлар: Примов Соатмроуд ва Аллоқулов Абдулатиф. – Тошкент: Ўзбекистон халқаро ислом академияси.
16. Абул Юср Муҳаммад Паздавий. (2005). Усулу-д-дин / Таҳқиқ: Х. Питер. – Қоҳира: ал-Мактабату-л-азҳария ли-т-турос.
17. Абулфатҳ Муҳаммад ибн Абдулкарим Шаҳристоний. (2007). Ал-Милал ван-ниҳал (Ж. I). – Байрут: Ал-Мактабаа ал-асрия.
18. Акмалиддин Муҳаммад ибн Муҳаммад Бобартий Ҳанафий. (2009). Шарҳу васият ал-Имом Аби Ҳанифа. – Аммон: Дор ал-фатҳ.
19. Аминов Ҳамидуллоҳ. (2022). Имоми Аъзам Абу Ҳанифа ва унинг илмий асарига қарши айтилган даъволарга раддия. – Тошкент: Ўзбекистон халқаро ислом академияси.
20. Аҳмет Ак. (2008). Бüйük Türk Âlimi Mâturîdî ve Mâturîdîlik. – İстанбул: Байрак Матбаасı.
21. Имом Абу Ҳанифа. (2022). Мажмуи кутуб ва расоил ва васоя ал-Имом ал-Аъзам Аби Ҳанифа ан-Нўмон ибн Собит ат-Тамимий ал-Куфий разияллоҳу анҳу / Таҳқиқ: Доктор Муҳаммад ибн Исмоил Абу Аввод. – Аммон: Мактабаа ал-ғоним лин-нашр ват-тавзеъ.
22. Имом Абу Ҳанифа. Ал-Фиқҳ ал-абсат. Дор ал-кутуб ал-мисрия. Қўлёзма Инв. №:215.
23. Имом Абу Ҳанифа. Ал-Фиқҳ ал-абсат. Мактабату Ҳожи Салим Оғо. Қўлёзма Инв. №:587.
24. Муҳаммад ибн Абдурраҳмон Хамис. (2007). Усул ад-дин. – Риёз: Дор ас-сумайъий лин-нашр ват-тавзеъ.
25. Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Абу Саҳл Шамсулаимма Сарахсий. (1971). Шарҳ ас-сияр ал-кабир (Ж. I). – Байрут: Аш-Ширкату аш-шарқия.

REFERENCES

1. A. J. Wensinck. (1932). The Muslim Dogma: Its Genesis and Historical Development. – London: Cambridge University Press.
2. Ebû Bekr Muhammed b. Hasan İbn Fûrek. (2009). Şerhu'l-Âlim ve'l-müteallim, thk. Ahmed Abdurrahim es-Sâih & Tevfîk Ali Vehbe. – Kahire: Mektebetü's-Sekâfeti'd-Dîniyye.
3. Kâtib Çelebî. (1972). Keşfü'z-zünûn an esâmî'l-kütüb ve'lfünûn (J. II). tsh. M. Şerefettin Yaltkaya - Kilisli Rifat Bilge. – İstanbul: Milli Eğitim Basımevi.
4. Şükrü Özen. (2003), Mâtürîdî. Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi (J. XXVIII) – Ankara: TDV Yayınları.
5. Abdulazim ibn Abdulqaviy ibn Abdulloh Abu Muhammad Zakiyyiddin Munziriy. (1967). At-Targ'ib vat-tarhib min al-hadis ash-sharif (J. III). – Bayrut: Dor ihyoi at-turos al-arabiy.
6. Abdulqodir Abdurahim o'g'li. (2007). Aqoid darsligi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti.
7. Abdulloh ibn Muhammad ibn Ya'qub ibn Horis ibn Xalil Horisiy Subazmuniy Buxoriy. (2020). Kashf al-osor ash-sharifa fi manoqibil imami Abi Hanifa (J. II). – Istanbul: Maktabatul irshod.
8. Abdurashid qori Baxromov. (2003). Imomi A'zam asarlari. – Toshkent: Movarounnahr.
9. Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Moturidiy. (2003). Kitobu-t-tavhid / Tahqiq: Bekr Tupol o'g'li va Muhammad Orushiy. – Anqara: Shirkatu-n-nashr va-t-tiboa va-t-tijora.
10. Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hanafiy Samarqandiy Moturidiy. (1321/1903). Sharh al-fiqh al-akbar. – Haydarobod: Matbaa majlis al-maorif an-nizomiya.
11. Abu Nuaym Ahmad ibn Abdulloh ibn Ahmad ibn Is'hoq ibn Muso ibn Mehron Asbahoniy. (1415/1994). Musnadu al-Imom Abi Hanifa rivoyatu Abi Nuaym. – Riyoz: Maktabaatul kavsar.
12. Abu Salama Buxoriy. (2021). Jumal usul ad-din // Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: S.Primov. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.
13. Abu Shakur Muhammad ibn Abdulloh Solimiy Keshiy. (2014). At-Tamhid fi bayonit tavhid // Tarjimon va izohlar muallifi S.Primov. – Toshkent: Movarounnahr.
14. Abul Muin Maymun ibn Muhammad Nasafiy. (1990). Tabsiratu-l-adilla fi usuli-d-din (J. I). / Tahqiq: Kilode Saloma. – Damashq.
15. Abul Muin Nasafiy. (2022). Bahrul kalom // Tarjimonlar: Primov Soatmroud va Alloqulov Abdulatif. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.
16. Abul Yusr Muhammad Pazdaviy. (2005). Usulu-d-din / Tahqiq: X. Piter. – Qohira: al-Maktabatu-l-azhariya li-t-turos.
17. Abulfath Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniy. (2007). Al-Milal van-nihal (J. I). – Bayrut: Al-Maktabaa al-asriya.
18. Akmaliddin Muhammad ibn Muhammad Bobartiy Hanafiy. (2009). Sharhu vasiyat al-Imom Abi Hanifa. – Ammon: Dor al-fath.
19. Aminov Hamidulloh. (2022). Imomi A'zam Abu Hanifa va uning ilmiy asariga qarshi aytilgan da'volarga raddiya. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.
20. Ahmet Ak. (2008). Büyük Türk Âlimi Mâturîdî ve Mâturîdîlik. – İstanbul: Bayrak Matbaası.
21. Imom Abu Hanifa. (2022). Majmui kutub va rasoil va vasoya al-Imom al-A'zam Abi Hanifa an-No'mon ibn Sobit at-Tamimiy al-Kufiy raziyallohu anhu / Tahqiq: Doktor Muhammad ibn Ismoil Abu Avvod. – Ammon: Maktabaa al-g'onim lin-nashr vat-tavze'.
22. Imom Abu Hanifa. Al-Fiqh al-absat. Dor al-kutub al-misriya. Qo'lyozma Inv. №:215.
23. Imom Abu Hanifa. Al-Fiqh al-absat. Maktabatu Hoji Salim Og'o. Qo'lyozma Inv. №:587.
24. Muhammad ibn Abdurrahmon Xamis. (2007). Usul ad-din. – Riyoz: Dor as-sumay'iy lin-nashr vat-tavze'.
25. Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Sahl Shamsulaimma Saraxsiy. (1971). Sharh as-siyar al-kabir (J. I). – Bayrut: Ash-Shirkatu ash-sharqiya.